

**ISMOIL HAQQIY BURSAVIYNING TASAVVUFİY-ISHORİY TAFSIR QILISH
METODOLOGIYASI**

Habibullayeva Halima Farxod qizi
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik mutaxasisligi
1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: PhD
M.M.Agzamova

Annotatsiya: *Ushbu maqola tasavvufiy tafsirlar ichida o'z o'rniغا ega bo'lган "Ruhu-l-bayon" tafsirining yozilish uslubi va muallif e'tibor qaratgan jihatlarni ochib berishga beg'ishlangan. Ismoil Haqqiy Bursaviy oyatlarni shahrhlashda aqliy, naqliy va tasavvufiy tafsir qilishni jam qilgan bo'lib, sufiy tafsirlar orasida o'ziga xos jihatni kasb etadi.*

Tayanch so'z va iboralar: *"Ruhu-l-bayon" tafsiri, balog'at, tafsir bil ma'sur, tafsir bir ray, ishoriy tafsir, balog'at, ilm al-maoniyy.*

Ismoil Haqqiy Bursaviy XVII asr oxirlari, XVIII asr boshlarida faoliyat yuritgan sharq mufassir olimi bo'lib, tasavvufiy tafsirshunoslik bo'yicha nodir manba hisoblangan "Ruhu-l-bayon" tafsiri muallifidir. Bursaviy ahli sunna val jamoa olimlaridan hisoblanib, fiqhda hanafiy mazhabiga ergashgan, aqiydada esa moturudiylilik ta'llimotiga e'tiqod qilgan. Bursaviy bir qancha shar'iy va boshqa ilmlarni mukammal egallagan bo'lib, sarf, nahv, mantiq, bayon, fiqh, kalom, tafsir, tasavvuf, hadis va Qur'on ilmlari shular jumlasidandir. "Ruhu-l-bayon" tafsirining yozilishi davomida ushbu ilmlarni ham asarda o'z aksini topishi olimning barcha ilmlardan xabardorligida dalil bo'ladi. Uning asarlari insonning ma'naviyati yuksalishi, ruhiy kamolati, nafaqat zohiriy odobiga, balki, botiniy tarbiyasiga ham ta'siri beqiyosdir.

Ismoil Haqqiy Bursaviy Qur'oni karimni to'liq holatda, har bir suraning nomini, nozil bo'lish sababini, oyatlar sonini zikr etib tafsir qilishni boshlagan. Ba'zan suralarning umumiyligi ma'nosi haqida ma'lumot berib o'tgan. So'zlarning lug'aviy ma'nolarining tushuntirishga alohida e'tiborini qaratishi bilan birga, urg'u berish lozim deb hisoblagan oyatlarning e'robbini ham keltirib o'tgan. Iboralar va atamalarning ma'nolarini aniqligi va to'g'riliqiga diqqat qaratgan. Ismoil Haqqiy Bursaviy o'z tafsirida asosan va'z-nasihat jihatidan yondashgan bo'lib, oyatlarning nozil bo'lish sabablarini ko'p o'rinnarda keltirgan, ammo bu ma'lumotlar qaysi manbalarga mansub ekanligini zikr etilmagan, ba'zilari mavzu hadislari hisoblanadi. So'ng tasavvufiy tafsir qilishga kirishib, qissalar va rivoyatlarni keltirgan, shuningdek, isroiliyotlardan ko'plab foydalangan. Ba'zi oyatlarning boshqa oyatlar bilan o'rtasidagi bog'liqligiga ko'ra, munosabat ilmini ham yoritib o'tgan. Fiqhiy oyatlarning tafsirini hanafiy mazhabiga muvofiq sharhlab, oyatning ma'nosini ochib beruvchi ba'zi

masalalarni ham keltirib o'tgan.

Ismoil Haqqiy Bursaviy oyatlarni sharhlashda ba'logatga ham alohida e'tibor qaratgan bo'lib, oyatlarni tafsir qilishda balog'at ilmining bir juzi bo'lmish ilm al-maoniydan keng foydalangan. Abu Saudning tafsiridan ta'sirlanib, oyatlarning ma'nolarini botiniy mazmuniga ishora qilgan holatda keng yoritib bergen.

“Ruhu-l-bayon fiy tafsiril Qur'an” tafsiri “at-tafsir bil-ma'sur”, “at-tafsir bir-ra'y” va “ishoriy” tafsirlarning jamlanmasi o'laroq tasnif qilingan. Ismoil Haqqiy Bursaviyning asarini tadqiq qilish mobaynida uning tafsir qilishdagi quyidagi metodlariga ahamiyat berish mumkin:

- Ismoil Haqqiy Bursaviy o'z tafsirida Qur'onning har bir oyatini sharhlab, oyatlarda kelgan so'zlarning har birini qaysi ma'noda qo'llanganini yoritib o'tadi⁸⁵;

- Oyatlar o'rtasidagi zid kelgan ma'nolarni ba'zi o'rnlarda ochiq bayon qilib, ba'zi o'rnlarda ularga ishora qilib ketgan;

- Ismoil Haqqiy Bursaviy lug'atlarga alohida e'tibor qaratib o'tgan, ammo, so'zlarning lug'atlari cho'zilib ketishi hamda, tafsirni o'z yo'nalishidan chiqib ketishidan saqlangan;

- Turli falsafiy aqidaviy firqalar, shialarning fikriga qarshi raddiyalar berib o'tgan.

Bursaviy Qur'oni Qur'on oyatlari bilan tafsir qilib boshlagan, bir oyatda kelgan so'zlarni boshqa o'rnlarda kelgan oyatlar bilan sharhlab o'tgan. Buning misolini “Fotiha” surasi 7-oyati⁸⁶ ko'rish mumkin.

غَيْرِ الْمَغْصُوبِ عَلَيْهِمْ وَلَا الصَّالِيْنَ

“g'azabga uchragan va adashganlarning emas!” (Fotiha surasi, 7-oyat)⁸⁷

“Zalolat” to'gri yo'ldan qasddan, yo bilmasdan qaytgan, adashganlarga nisbatan ishlataladi. “G'azabga uchraganlar” dan murod Alloh taoloni bilmagan johil bandalardir. Chunki, ne'matlantirilganlar ilm va amali jam bo'lganlar bo'lib, ular Alloh taoloni tanidilar va Allohga iymon keltirib, unga xolis ibodat qiladilar. Ilm berilgan, ammo amal qilmaydiganlar esa, Alloh taolonning ushbu oyati karimasi o'laroq g'azabga uchraganlar sanaladi:

وَغَضِبَ اللَّهُ عَلَيْهِ وَلَعْنَةُ

“Yana unga Alloh g'azab qilgay va la'natlagay”⁸⁸ (Niso surasi, 93-oyat)

Ilmsiz johil inson adashgan, zalolatdagi inson sanaladi:

مَاذَا بَعْدَ الْحَقِّ إِلَّا الصَّالِيْنَ

“Haqiqatdan o'zgasi esa gumrohlikdir”⁸⁹. (Yunus surasi, 32-oyat)

Yoki, g'azabga uchraganlardan murod yahudiylar bo'lishi mumkin, Alloh taolonning ular haqidagi quyidagi oyati dalil bo'ladi:

⁸⁵ Irizal Ilyos. Manhaj ash-shayx Ismoil Haqqiy Bursaviy fi tafsirihi “Ruhu-l-bayon”. – B. 22.

⁸⁶ Ismoil Haqqiy Bursaviy. Ruhu-l-bayon. – Bayrut: Dor al-kutub al-i'lmiyya, 2018. – J. I. – B. 24.

⁸⁷ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasi. – Toshkent: “Toshkent islam universiteti” nashriyoti, 2001. – B. 1.

⁸⁸ O'sha manba. – B. 93.

⁸⁹ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasi. – Toshkent: “Toshkent islam universiteti” nashriyoti, 2001. – B. 212.

مَنْ لَعَنَهُ اللَّهُ وَغَضِبَ عَلَيْهِ

“Alloh la’natlagan va g’azab qilgan”⁹⁰. (Moida surasi, 60-oyat)

Adashganlar nasroniyalar bo’lib, ular haqida shunday deyiladi:

قَدْ صَلُوا مِنْ قَبْلٍ وَأَصَلُوا كَثِيرًا

“Oldindan adashgan va ko’plarni adashtirgan”⁹¹. (Moida surasi, 77-oyat)

Ammo, adashganlar faqatgina nasroniyalar, g’azabga uchraganlar faqat yahudiyalar deb xoslash joiz emas⁹².

So’ng, oyatlarni va kalimalarni hadisi sharif bilan sharhlab, ohib bergen, bu “Kavsar” surasining 1-oyati⁹³ misolida kelgan.

إِنَّا أَعْظَمْنَاكَ الْكَوْتَرَ

“(Ey Muhammad) albatta, biz sizga kavsarni ato etdik”⁹⁴.

Ushbu oyat tafsirida Bursaviy har bir kalimaning lug’aviy va arablar orasida ishlatiladigan ma’nolariga qisqa to’xtalganidan so’ng, quyidagi hadisni keltiradi.

Rosululloh (s.a.v.) dan rivoyat qilinadi: “Kavsar nima ekanligini bilasizlarmi? U Jannatdagi Robbim menga va’da qilgan bir anhordir. Unda asaldan-da shirinroq, suttan-da oqroq, qordan-da sovuqroq, qaymoqdan-da yoqimliroq suv bor. Sohillari shaffof zumraddan, osmondagи yulduzlar sonicha idishlari kumushdandir. Undan avvalo faqirlar va muhojirlar icharlar”⁹⁵.

Qur’on oyatlari, kalimalarining ma’nolarini sharhlashda Qur’on bilan, hadis bilan tafsir qilganidan so’ng sahobalarning so’zlarini keltirgan. “Naba” surasi 23-oyati⁹⁶ tafsirida sahobalarning so’zlarini bilan oyat kalimalarini ma’nosini ohib bergen.

لَّا يَشِئُ فِيهَا أَحْقَابًا

“(Ular) u joyda uzoq zamonlar abadul abad qoluvchilardirlar”⁹⁷.

Bursaviy bu oyat sharhida sahobalarning qavllaridan dalillar keltirib quyidachicha tafsir qiladi: “Umar (r.a.) ushbu oyatdagi “ahqob” kalimasining ma’nosiga dalolat qilib shunday deydilar: “Ahqob”dan murod bu - sakson yildir. Uning har bir kuni ming yilga teng”. Mujohid (r.a.) shunday deydi: “Ahqob bu - qirq uchta huqba bo’lib, har bir huqba yetmish xarifdir. Har bir xarif yeti yuz yil, har bir yil uch yuz oltmis kun, har bir kun dunyo kunlaridan ming yilga teng keladi. Ibn Abbos (r.a.) va Umar (r.a.) lardan ham shunday rivoyat yetib kelgan”⁹⁸.

Oyatlarni tafsir qilish asnosida sahobalarning qavllarini keltirib o’tib, so’ng

⁹⁰ O’sha manba. – B. 118.

⁹¹ O’sha manba. – B. 121.

⁹² Ismoil Haqqiy Bursaviy. Ruhu-l-bayon. – Bayrut: Dor al-kutub al-i’lmiyya, 2018. – J. I. – B. 27.

⁹³ O’sha manba. – J. X. – B. 539.

⁹⁴ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolari tarjimasi. – Toshkent: “Toshkent islam universiteti” nashriyoti, 2001. – B. 602.

⁹⁵ Ismoil Haqqiy Bursaviy. Ruhu-l-bayon. – Bayrut: Dor al-kutub al-i’lmiyya, 2018. – J. X. – B. 539.

⁹⁶ O’sha manba. – J. X. – B. 306.

⁹⁷ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolari tarjimasi. – Toshkent: “Toshkent islam universiteti” nashriyoti, 2001. – B. 582.

⁹⁸ Ismoil Haqqiy Bursaviy. Ruhu-l-bayon. – Bayrut: Dor al-kutub al-i’lmiyya, 2018. – J. X. – B. 306.

tobeinlardan yetib kelgan qissalar va ularning so'zlarini oyatdagi so'zlarni yoritishda keltirgan. Bunga "Oli Imron" surasi 48-oyatini⁹⁹ namuna sifatida keltirish mumkin.

وَيُعَلِّمُهُ الْكِتَابُ وَالْحِكْمَةُ وَالنُّورَةُ وَالْإِنْجِيلُ

"Unga (Isoga Alloh) yozishni, (ilm-u) hikmatni, Tavrot va Injilni ta'lim beradi"¹⁰⁰.

Rivoyat qilinadiki, Iso (a.s.) onasining qornidaligida Tavrotni hifz qildi. Hazrati Maryam qornidagi bolasini eshitib turar, Iso onasiga Tavrotni o'rgatar edi. So'ng u shahidlik olami bilan sharaflangandan keyin, Alloh taolo unga dunyodan zohidlik (behojatlik) ato qildi. Iso jundan kiyim kiyar, qora toshdan (bo'lган narsani) boshiga kiyar, oydan nur olar edi. Uning bir qadahi bo'lib, undan suv ichar va tahorat olar edi. Iso bir kishini qo'li bilan suv ichayotganini ko'rib o'ziga o'zi dedi: "Ey, Iso. Bu kishi sendan ko'ra zohidroq ekan dedi va qadahini otib yuborib sindirdi"¹⁰¹. Ushbu rivoyat orqali Bursaviy tobeinlardan yetib kelgan qissalarga ham alohida e'tibor bergani ma'lum bo'ladi.

Bursaviyning "at-tafsir bir-ra'y" usulida tafsir qilishiga to'xtalib o'tilsa, quyidagi xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi:

Islomdan oldingi ummatlarning qissalarni ko'plab keltirgan bo'lib, aksariyat holatlarda bu rivoyatlar isroiliyyotlar ekanligini aytib o'tilmagan. Bunga "Baqara" surasining 36-oyati, "Qof" surasi 1-oyati, "Baqara" surasi 248-oyati tafsiri misolida ko'rish mumkin¹⁰².

Aqiydaviy masalalarda mutaaxxir ulamolar Alloh taoloning ism-sifatlarini ta'vil qilganiga asoslanib keltirgan. "Toha" surasi 5-oyati¹⁰³ hamda, "Qamar" surasi 14-oyatlari talqinida kuzatish mumkin¹⁰⁴.

Nubuvvat masa'lalarini isbotlagan, payg'ambarlarning katta-yu kichik gunohlardan pokligini himoya qilishga harakat qilgan, "Haj" surasi 52-oyati¹⁰⁵, "Toha" surasi 121-oyati¹⁰⁶.

Payg'ambarlar olib kelgan nasslarga tegishli bo'lган masalalarga yo'l topgan, "Sajda" surasi 11-oyati¹⁰⁷, "Nahl" surasi 32-oyati¹⁰⁸, "A'rof" surasi 9-oyati¹⁰⁹.

Fiqhiy masalalarni yoritishda hanafiy mazhabi bilan cheklangan, shuningdek, qolgan uch mazhabning fikrlarini ham qisqacha ko'rsatib o'tgan, "Baqara" surasi 3-oyati¹¹⁰, "Niso" surasi 6-oyati¹¹¹.

Bursaviy Qur'on ilmlariga tegishli tadqiqotlarni, xossatan, makkiy va madaniy oyatlar tahlili "Moida" surasi 3-oyati,¹¹² sababi nuzul ilmi "A'rof" surasi 43-oyati¹¹³, qiroatlar

⁹⁹ O'sha manba. – J. II. – B. 38.

¹⁰⁰ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasi. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyoti, 2001. – B. 56.

¹⁰¹ Ismoil Haqqiy Bursaviy. Ruhu-l-bayon. – Bayrut: Dor al-kutub al-i'lmiyya, 2018. – J. II. – B. 38.

¹⁰² Ismoil Haqqiy Bursaviy. Ruhu-l-bayon. – Bayrut: Dor al-kutub al-i'lmiyya, 2018. – J. I. – B. 111.

¹⁰³ O'sha manba. – J. V. – B. 431.

¹⁰⁴ O'sha manba. – J. IX. – B. 321-322.

¹⁰⁵ O'sha manba. – J. VI. – B. 48-49.

¹⁰⁶ O'sha manba. – J. V. – B. 520-521.

¹⁰⁷ O'sha manba.. – J. VII. – B. 313.

¹⁰⁸ O'sha manba. – J. V. – B. 36-37.

¹⁰⁹ O'sha manba.– J. III. – B. 177.

¹¹⁰ O'sha manba. – J. I. – B. 35.

¹¹¹ O'sha manba. – J. II. – B. 203.

¹¹² O'sha manba.– J. II. – B. 471.

“Yusuf” surasi 18-oyati¹¹⁴, nosix va mansux “Nur” surasi 2-oyati¹¹⁵, oyatlardagi mubham so‘zlarni “Kahf” surasi 22-oyatlari yoritib o’tgan¹¹⁶.

“Ruhu-l-bayon” tafsirining o’ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagi holatlarni sanash mumkin bo’ladi. Ma’lumotlarning manbalari va ularning isboti ko’p o’rinlarda ko’rsatib o’tilgan, shuningdek, atamalar va iboralar faqat zarur bo’lgandagina o’zgartirilgan. Manba sifatida, asosan, ilm maydonida mashhur va ma’lum bo’lgan kitoblardan foydalanilgan. Ko’plab manbalardan foydalanilganiga qaramasdan, oyatlaring sharhi cho’zib yuborilmagan, muallif eng kuchli deb bilgan qavl keltirib o’tgan. “Ruhu-l-bayon” tafsirida va’z-nasihat, targ’ib va tarhib, hamda, oyatlarning hukmlari, qur’oniylar qissalar bilan sharhlashga katta e’tibor qaratilgan bo’lib, bu xususiyati bilan tasavvufiy tafsirshunoslik yo’nalishiga munosib keladi. Qo’shimcha ravishda, balog’at ilmi tarafidan e’tibor bilan yondalishgan.

“Bilginki, havoyi nafs ahli bir necha turlidir. Mo’tazila va shiy’alar ularning qiblasi bo’lmish ikki toifasidir. Chunki, ular Qur’on va sunnatni ta’vil qilishda havoyi nafslariga ergashib, ahli sunna va-l-jamoaga xilof qilishadi. Insonlarni xuddi kofirlar va mushriklar adashtirgani kabi to’g’ri yo’ldan ozdiradilar. Ammo, oyati karimalardan ishoriy ma’nolarni shariatga mos holatda olish havoyi nafsga ergashish hisoblanmaydi, balki bu sof ilm-u irfondir”¹¹⁷. Bursaviyning ushbu so’zini mulozaha qilish, “Ruhu-l-bayon” tafsirini tadqiq qilish orqali, olimning tafsir qilishga ehtiyyotkorlik bilan yondashgani ma’lum bo’ladi.

Ismoil Haqqiy Bursaviyning o’ziga xos yondashgan uslubi tufayli uning “Ruhu-l-bayon”tafsiri boshqa tasavvufiy tafsirlardan farq qiladi. Hmada, bu asarning nihoyasiga yetgani, Qur’oni karimning barcha oyatlarini qamrob olgani bu asarning tasavvufiy tafsirshunoslik sohasida durdina asarlar qatoriga kiritadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolari tarjimasi. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2001. – 616 b.
2. Ismoil Haqqiy Bursaviy. Ruhu-l-bayon. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2003. – J. II. – 480 b.
3. Ismoil Haqqiy Bursaviy. Ruhu-l-bayon. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2003. – J. III. – 586 b.
4. Ismoil Haqqiy Bursaviy. Ruhu-l-bayon. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2003. – J. IV. – 528 b.

¹¹³ O’sha manba. – J. III. – B. 207.

¹¹⁴ O’sha manba. – J. IV. – B. 226.

¹¹⁵ O’sha manba. – J. VI. – B. 114.

¹¹⁶ O’sha manba. – J. V. – B. 233.

¹¹⁷ Ismoil Haqqiy Bursaviy. Ruhu-l-bayon. – Bayrut: Dor al-kutub al-i’lmiyya, 2018. – J. III. – B. 120.

5. Ismoil Haqqiy Bursaviy. Ruhu-l-bayon. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2003.
– J. V. – 544 b.
6. Ismoil Haqqiy Bursaviy. Ruhu-l-bayon. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2003.
– J. VI. – 536 b.
7. Ismoil Haqqiy Bursaviy. Ruhu-l-bayon. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2003.
– J. VII. – 503 b.
8. Ismoil Haqqiy Bursaviy. Ruhu-l-bayon. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2003.
– J. IX. – 542 b.
9. Irizal Ilyos. Manhaj ash-shayx Ismoil Haqqiy Bursaviy fi tafsirihi “Ruhu-l-bayon”.